

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Hamroyev Asliddin Umed o'g'li*
“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI
MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18
- Bazarbayeva Shohsanam Muratovna*
SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX
ASR BOSHLARI) 19-23
- Asadova Dilnoza Innatovna*
O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA
BUGUNI 24-28
- Ҳайитов Умед Яҳёевич*
ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ
ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34
- Омонова Сарвиноз Ориф қизи*
ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Алимханова Нигора Алимхановна*
ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52
- Маҳмудова Дилафруз Hasanovna*
KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60
- Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH 61-69
- Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли*
СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75
- Паязов Мурод Максудович*
“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ
АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86
- Шадибекова Дилдор Абдурахмановна*
ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92
- Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu*
INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99
- Мамажоновна Одинахон Алишер қизи*
КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ
ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106
- Nozimov Eldor Anvarovich*
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIIY DAVLATLARNING
O'RNI 107-115
- Буранова Жазира Эргаш қизи*
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ
ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ҲИЙНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Hakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODEL I	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna,
Farg'ona politexnika instituti, dotsent,
"Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası" i.f.n. dotsenti,
e-mail: k.kunduzova@ferpi.uz

IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI
SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqola iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi joriy aktivlar tushunchasi va uning o'rni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, asosiy maqsad sifatida joriy aktivlar va xo'jalik yurituvchi subyekt farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash hisoblanadi. Bugungi iqtisodiy tebranishlar va inqirozlar davrida joriy aktivlarning optimal miqdorini belgilash murakkab hisoblanadi, zero bu ularning doimiy aylanishini ta'minish, joriy ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlarining o'zaro mutanosibligi bilan belgilanadi. Maqolada joriy va uzoq muddatli aktivlar va moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi maqbul nisbat nazariy jihatdan o'rganildi. Maqolaning natija va muhokamalar qismida joriy aktivlarni boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish omillari haqida fikr yuritildi, muallif xulosalari shakllantirildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyotini globallasuvi, joriy aktivlar, aylanma aktivlar, aylanma kapital, moddiy aylanma mablag'lar, pul mablag'lari, yaratilayotgan mahsulot, tovar-moddiy zaxiralari, boyliklarni yaratish, zaruriy aylanma, aylanma mablag'lar qiymati.

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna,
Ferghana Polytechnic Institute,
Candidate of Economics, Associate Professor of
the Department of Accounting and Audit,

THE CONCEPT OF CURRENT ASSETS AND THEIR PLACE IN THE ACTIVITIES OF BUSINESS
ENTITIES AT THE CURRENT STAGE OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Abstract. This article is devoted to the study of the concept of current assets and its role in the activities of business entities at the present stage of economic development, the main purpose of which is to substantiate the relationship between current assets and the welfare of an economic entity. In the period of today's economic fluctuations and crises, determining the optimal amount of current assets is difficult, because it is determined by ensuring their constant turnover, the ratio of current production and working capital among themselves. The article theoretically examines the optimal ratio between current and non-current assets and sources of financing. In the final and debatable part of the article, the factors of increasing the effectiveness of the current assets management mechanism are considered, the author's conclusions are formulated.

Keywords: globalization of the economy, market assets, current assets, working capital, working capital, cash, inventories, wealth creation, necessary turnover, value of working capital.

Кундузова Кумрихон Ибрагимовна,
Ферганский политехнический институт,
к.э.н., доцент кафедры "Бухгалтерский учет и аудит",

ПОНЯТИЕ ОБОРОТНЫХ АКТИВОВ И ИХ МЕСТО В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению понятия оборотных активов и его роли в деятельности хозяйствующих субъектов на современном этапе экономического развития, основной целью которой является обоснование связи между оборотными активами и благосостоянием хозяйствующего субъекта. В период сегодняшних экономических колебаний и кризисов определение оптимального количества оборотных активов является сложным, ведь оно определяется обеспечением их постоянного оборота, соотношением между собой средств текущего производства и оборотных средств. В статье теоретически исследовано оптимальное соотношение между оборотными и внеоборотными активами и источниками финансирования. В итоговой и дискуссионной части статьи рассмотрены факторы повышения эффективности механизма управления оборотными активами, сформулированы выводы автора.

Ключевые слова: глобализация экономики, рыночные активы, оборотные активы, оборотный капитал, оборотные средства, денежные средства, товарно-материальные запасы, создания богатства, необходимого оборота, стоимости оборотных средств.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N22>

Kirish. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti holatini ko'rsatuvchi va baholovchi asosiy ko'rsatkich yalpi ichki mahsulot hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotini globallasuvi natijasida mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlari hajmini o'zgarishi dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda [1]. Bizga ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotini qay darajada rivojlanganligi uning YAIM tarkibida sanoat ishlab chiqarish ulushi va salmog'i bilan baholanadi. Shu bois investitsion va innovatsion siyosat aynan shu tarmoqqa qaratilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, jahonda eng yirik kompaniyalar jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar salmog'i 35-40 foizni tashkil etadi. Mazkur korxonalar o'z aylanma mablag'larini foydaga ta'sirini doimiy ravishda nazorat qilib, ularni yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omili sifatida belgilashadi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini globallasuv va integratsiyalashuvi, innovatsion va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida joriy aktivlar hisobi tashkiliy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish bosqichda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda joriy aktivlarni tasniflash, ularni tan olish, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish, foydalanuvchilar uchun axborot imkoniyatlarini kengaytirish, ulardan samarali foydalanishda tahlil qilish uslubiyoti, hamda amaliy-uslubiy masalalarni rivojlantirish muammolari va joriy aktivlarni hisobga olish xususiyatlari afzalliklarini belgilab berilgan. Biroq, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida joriy aktivlarning turlicha talqinini umumlashtirish masalalari, ularni tan olish mezonlarini muvofiqlashtirish ishlari, joriy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari talablari darajasida tashkil etish bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashlar ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu o'z navbatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalariga chet sarmoyalarini keng ko'lamda jalb etishni taqozo etadi. Buning uchun mamlakatda hisob tizimini shaffoflashtirish, korxonalar joriy aktivlari hisobini tashkil etish, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni ilg'or jahon tajribasi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil bugungi kunni dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodchilarning tadqiqotlaridagi asosiy bosh g'oya — jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yo'llar nihoyatda xilma-xil ekanligini ko'ramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga

kelgan davrgacha (XV asr) bo'lgan iqtisodiy g'oyalardagi umumiylik shuki, barcha olimlar va ularning yozgan asarlarida mehnat hamda yer boylikning asosiy vositasi ekanligi turli yo'llar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan.

XVIII asrda buyuk shotland olimi A.Smitda iqtisodiyotda talab va taklif kuchlarini boshqaradigan "ko'rinmas qo'l" g'oyasi keladi [7]. Har bir inson o'ziga qarab, beixtiyor hamma uchun eng yaxshi natijani yaratishga yordam beradi. Odamlar sotib olmoqchi bo'lgan mahsulotlarini sotish bilan, bu iqtisodiyotda faraz qiluvchi qassob, pivo va novvoy pul ishlashga umid qilmoqda. Agar ular o'z mijozlarining ehtiyojlarini qondirishda samarali bo'lsalar, ular moliyaviy yutuqlardan bahramand bo'ladilar va pul topish maqsadida faoliyat olib borayotgan korxonada qatnashayotganlarida, ular o'zlari istagan mahsulotlar bilan ta'minlaydilar. Smitning ta'kidlashicha, bunday tizim qassob, pivo pishiruvchi va novvoy uchun boylik yaratishdan tashqari butun xalq uchun boylik yaratadi [8].

D.Rikardoning ilmiy ishlari ish haqi, foyda va renta masalalariga bag'ishlangan. Uning iqtisodiyot fanidagi tarixiy o'rni, birinchi navbatda, kapitalizmning iqtisodiy munosabatlarini qiymatning mehnat nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq etishni boshlab berganligidan iborat. D.Rikardo tovar qiymatining yagona manbai ishchining mehnati bo'lib, aholining daromadlari — ish haqi, foyda, foiz, rentalar shu tovar qiymatiga asoslanadi, deb qaradi. D.Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari" (1817) asarida ishchining ish haqi bilan sahibkorning foydasi o'rtasidagi nisbatning teskari proporsionalligini asoslab, ishchi va kapitalist iqtisodiy manfaatlarining zid ekanligini ko'rsatadi [9]. Ricardo shug'ullangan asosiy masalalardan biri — yaratilgan ijtimoiy mahsulotning asosiy 3 sinf — sanoatchilar (foyda), ishchilar (ish haqi), yer egalari (renta) o'rtasidagi taqsimoti muammosi bo'lgan. Ricardo renta nazariyasini asoslab berdi. Ricardo nazariya va amaliyotda erkin savdo tarafdori bo'lgan [10], [11]. Ricardo Angliyaning tashqi aloqalari uning iqtisodiyotida katta rol o'ynashini alohida o'rgandi. U birinchilardan bo'lib ayrim tovarlarni tarkibiga emas, balki mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatdi, tashqi savdoda qiyosiy afzalliklar nazariyasini asoslab berdi.

Biroq yuqoridagi olimlar fikrlari bugungi kundagi asosiy masala bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi joriy aktiv tushunchasi to'liq ochilmagan, shu boisdan biz tadqiqot doirasida bir qancha xorijiy va respublikamizning yirik iqtisodchi olimlari fikrlarini o'rgandik.

Iqtisodiy adabiyotlarda joriy aktivlarga turlicha ta'riflar berilgan. Joriy aktivlar haqida to'xtalib N.P.Kondrakov: "Aylanma aktivlar (aylanma kapital) – material aylanma mablag'lari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va hisoblashish mablag'laridan tarkib topadi" [2; 44-b], deb ta'kidlaydi. Ushbu berilgan izohga ba'zi aniqliklar kiritish, xususan, hisoblashish mablag'larining joriy aktivlari tarkibiga kiritilishida e'tirozli fikrlar yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni, hisoblashish mablag'lari tarkibiga odatda debitorlik qarzlari bilan birga kreditorlik qarzlari ham kiritiladi. Bunda kreditorlik qarzlari joriy aktiv bo'la olmaydi va natijada yuqoridagi bildirilgan izoh mukammal bo'la olmaydi.

N.A.Kamordjanova va I.V.Kartashovalar fikrlariga ko'ra, "Aylanma mablag'lar (aktivlar) deb xom — ashyo, materiallar, yoqilg'i, yarim fabrikatlar, tez eskiruvchi buyumlar, ishlab chiqarish uchun tayinlangan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish; tayyor mahsulotlar va tovarlarni sotish yoki sotib olish; boshqa material qiymatliklar (o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar); kelgusi davr xarajatlari; yuklab

jo'natilgan mahsulotlar; pul mablag'lari; boshqa xo'jalik subyektlari qarzlari yoki shu xo'jalik subyekti uchun turli ko'rinishdagi debitorlik qarzlarga aytiladi" [3;31-b], deb izohlangan. Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari nisbatan to'liq bo'lsa-da, joriy aktivlar tarkibida kechiktirilgan xarajatlarning hisobga olinishi to'g'risida fikr bildirilmaganligini kamchilik sifatida e'tirof etish mumkin.

Y.Abdullaev, A.Ibrohimov va M.Raximovlarning fikrlariga ko'ra, "Joriy aktivlar tarkibiga xo'jalik subyekting moddiy aylanma mablag'lari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hamda qarshi tomonga bo'lgan debitorlik majburiyatlari kiritiladi" [4; 47-b], deb ta'riflangan. Ammo, bu yerda "qarshi tomonga bo'lgan debitorlik majburiyati" tushunchasini tahrir etish va muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismini qo'shish maqsadga muvofiq.

Amaldagi 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMSning 69.2.-bandiga asosan joriy aktivlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Asosan qayta takroriy sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan bo'lsa va undan hisobot vaqtdan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan bo'lsa, bunday hollarda u joriy aktiv sifatida tasnif etilishi lozim"[5], deb izohlangan. Bizningcha, joriy aktivlarga berilgan mazkur ta'rif uning mohiyatini to'liq ochib bera olmagan.

Joriy aktivlar tushunchasiga nisbatan yuqoridagi iqtisodchi olimlarning bergan ta'riflarini tahlil qilish asosida quyidagicha izoh berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "Joriy aktivlar – xo'jalik subyekting doimiy harakatdagi mobil aktivlari bo'lib, bir ishlab chiqarish (me'yoriy operatsion) sikli davomida o'z qiymati va shaklini yaratilayotgan mahsulotlarga to'liq o'tkazuvchi boyliklar hisoblanib, ular tarkibiga tovar-moddiy zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlar va boshqa joriy aktivlar kiritiladi".

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ma'lumotlarni tahlil etish turli olimlar va iqtisodiy munosabatlar sharoitida tavsiflash hamda qayd etish masalalariga bog'liq usullardan: natijalarni tahlil qilish, turli fikrlar tahlili, kuzatish, sintez, deduksiya usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokamalar. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish, xizmatlar ko'rsatish inson hayotining, uning yashashi va kamolotining moddiy asosidir. Shuning uchun ishlab chiqarishni doimiy ravishda ko'paytirish va uni rivojlantirish har doim muhim iqtisodiy qonun va obyektiv zaruratdir.

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, uning paydo bo'lishi, bu jarayonda ishtirok yetadigan omillar bo'lishi kerak. Iqtisodiyot tizimi va shaklidan qat'i nazar, ishlab chiqarish yoki xizmatlarning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo'lgan uchta omil bo'lishi kerak: mehnat, asboblari va mehnat obyektlari.

Biroq, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga oid ko'pgina adabiyotlar ishlab chiqarishning to'rtta omilini tan oladi: mehnat, kapital, yer-suv va tadbirkorlik qobiliyatlari.

Respublikamiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va xalqaro standartlarga asoslangan har tomonlama iqtisodiy va moliyaviy faoliyat tadbirkorlik subyektlaridan xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni yuritishni talab qiladi [12]. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishda mustaqillikni ta'minlash, bizning va xorijiy investorlarning investitsiyalarini jalb qilish uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni uyg'unlashtirish, yangi moliyaviy vositalar va omillarning paydo bo'lishi uzoq muddatli investitsiyalarning ilgari mavjud bo'lgan tashkiliy mexanizmini tubdan isloh qiladi.

Ushbu holat O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida baholashni tashkil yetish va takomillashtirishni uslubiy asoslash, hozirgi sharoitga mos keladigan korxonalar tomonidan sotiladigan uzoq muddatli va qisqa muddatli aktivlar qoidalarini ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq.

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, biznes yuritish ma'lum mablag'larni talab qiladi. Joriy aktivlar jami mablag'lar tarkibida muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Joriy aktivlar harakatchanligi va tez pul aylanmasi tufayli tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuqori samarali mablag'lardir. Tadbirkorlik subyektlarining joriy aktivlari, uzoq muddatli aktivlardan farqli o'laroq, faqat bitta ishlab chiqarish siklida to'liq iste'mol qilinadi, ularning qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazadi jismoniy va pul ko'rinishida tiklanadi hamda shu bilan doimiy harakatda bo'ladi.

Bozor o'zgarishlari yo'lida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, tubdan yangi iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi iqtisodiy va soliq qonunchiligining tez o'zgarishini belgilaydi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, agar joriy aktivlar bilan operatsiyalarni huquqiy ma'noda tartibga solishning turli masalalari ma'lum bir izchillik va ishlab chiqish bilan tavsiflangan bo'lsa, unda bunday operatsiyalarning buxgalteriya jihati nuqtai nazaridan yangi konseptual yondashuvlar zarur.


Joriy aktivlarni tahlil qilish buxgalteriya hisoboti tahlilining eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, tashkilotning mulkiy va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim yetishni belgilaydi [13].

Joriy aktivlarning iqtisodiy tahlili xo'jalik yurituvchi subyektning joriy aktivlari va ularni shakllantirish manbalarini boshqarish uchun axborot asosidir. Tahlil iqtisodiy faoliyat va foyda hajmini oshirish, tashkilotning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zaxiralarni aniqlaydi. Iqtisodiy tahlilning roli bozor munosabatlariga o'tish sharoitida sezilarli darajada o'sdi, bunda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari uchun barcha javobgarlik bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasiga yuklanadi.

Korxonaning joriy aktivlarini boshqarishning mukammal mexanizmini ishlab chiqish, shuningdek, joriy aktivlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil qilish natijalarini olish ularni moliyalashtirish zarurati masalasini amaliy yechimga yondashishga imkon beradi. Bundan tashqari, joriy aktivlar hajmini samarali shakllantirish va tartibga solish likvidlikning maqbul darajasini saqlashga, ishlab chiqarish va faoliyatning moliyaviy sikllari samaradorligini ta'minlashga, natijada yetarlicha yuqori to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikka yordam beradi.

Korxonada faoliyatining barcha bosqichlarida joriy aktivlar doimiy bo'lib, joriy aktivlar ishlab chiqarish jarayonidan o'tib, yoqilg'i, xom ashyo, yordamchi va asosiy materiallarning eng yangi partiyalari bilan almashtiriladi. Joriy aktivlarning bir qismi sifatida zaxiralar ishlab chiqarish jarayoniga o'tadi, tayyor mahsulot ishlab chiqariladi va shu tariqa joriy aktiv tayyor mahsulot sifatida xo'jalik yurituvchi subyektini tark etadi. Joriy aktivlar ishlab chiqarish jarayonida ularning qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazish bilan birga to'liq qayta ishlanadi. Ularning yiliga miqdori har bir davrda yangi mehnat obyektlarini iste'mol qilish yoki qayta ishlashni ta'minlaydigan va korxonada qoladigan joriy aktivlar miqdoridan o'n baravar ko'p bo'lishi mumkin, yopiq konturni tashkil qiladi [6]. Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan korxonada o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy aktivlarning takomillashtirilgan tarkibini tavsiya etish hisobiga buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan amaldagi hisob

va hisobot ma'lumotlarining mosligi ta'minlashga xizmat etadigan chizma taqdim etildi. (1-chizma)



1-chizma. Tavsiya etilayotgan joriy aktivlar tarkibi¹.

Shu bilan birgalikda yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki agar joriy aktivlar rejalashtirish tamoyillariga qarab bo'linadigan bo'lsa, unda ular aylanma mablag'larning normallashtirilgan va normallashtirilmagan mablag'lar bilan belgilanadigan standartlari ajratish lozim. Budda, normallashtirilgan aylanma mablag'lar ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlar va kelgusi davrlar uchun xarajatlar deb ataladi hamda normallashtirilmagan aylanma mablag'lar naqd pul, tayyor mahsulotlar va debitorlik qarzlari hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning tarkibi joriy aktivlar elementlarining taqsimlanish nisbati deb ataladi [14]. Aylanma mablag'larning tarkibi, shuningdek, banklarning qisqa muddatli kreditlarini o'z ichiga olgan o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan joriy aktivlar nuqtai nazaridan ham ifodalanadi.

Oddiy ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar normal va standartlarni ishlab chiqishni tashkil etish sifatida belgilanadi. Ushbu mablag'lar hisobiga xo'jalik yurituvchi subyektning uzluksiz ishlashi va faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ularning yordami bilan korxonada ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotish sharoitlarini hisobga olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish zaxiralaridan, tugallanmagan ishlardan, kelgusi davrlardagi xarajatlar uchun mablag'lardan, tayyor mahsulot qoldiqlaridan foydalanishga doimiy ehtiyoji ta'minlanadi.

Korxonaning zarur aylanmasida ko'proq miqdordagi joriy aktivlarning mavjudligi xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini sekinlashishiga sabab bo'lishi va uning rivojlanishiga salbiy tasir etishi mumkin, bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ortiqcha va keraksiz zaxiralarning shakllanishiga olib keladi, natijada ular muomaladan chiqariladi. Bu joriy aktivlarning negizi bo'lgan aylanma mablag'lardan foydalanishning yomonlashishiga, ularning aylanmasini sekinlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, korxonaning rivojlanish sur'ati pasayadi, uning ishining rentabellik va foyda kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari yomonlashadi. Qarama-qarshi holatda, xo'jalik yurituvchi subyektning aylanma mablag'lari hajmi uning haqiqiy ehtiyojlaridan kam bo'lsa, korxonada doimiy ravishda moliyaviy va ishlab chiqarish qiyinchiliklarini boshdan kechiradi, chunki u zarur mablag'lar bilan ta'minlanmaydi.

Aylanma mablag'lar qiymatini kam baholash moliyaviy vaziyatning beqarorligiga, ishlab chiqarish jarayonidagi uzilishlarga va ishlab chiqarish hajmi hamda foydasining pasayishiga olib keladi. Aylanma mablag'lar hajmini ortiqcha baholash xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kapital xarajatlarni amalga oshirish qobiliyatini pasaytiradi [15].

Aylanma mablag'larning ko'payishi aylanma mablag'larning ortiqcha miqdoridan yo'qotishlarga olib keladi va ularning o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir, aylanma mablag'larning etishmasligi esa teskari ta'sirga olib keladi. Bundan tashqari, aylanma mablag'larning etishmasligidan yo'qotishlar ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga juda qattiq ta'sir qildi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda bizningcha norma yoki standart etib joriy aktivlarning elementlari uchun aylanma minimal zaxiralarni hisoblash, ma'lum bir rejalashtirish davri uchun zarur bo'lgan pul miqdorini tartibga soluvchi qiymatni xo'jalik yurituvchi subyekt o'z ehtiyojlarida hisob siyosatida belgilashi zarur.

Aylanma mablag'larga maqbul ehtiyojni aniqlash ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish, tugallanmagan ishlar va tayyor mahsulotni to'plash uchun ilgari surilgan pul miqdorini hisoblash shaklida amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi joriy aktiv o'rni beqiyosdir, zero uning negizi aylanma mablag'lardir bu degani istiqbol, rivojlanish, kelajak.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashkilot mulkining tarkibiy qismlaridan biri joriy aktivlardir. Joriy aktivlarsiz hech bir xo'jalik subyektini o'zini ishlab chiqarish yohud xizmat ko'rsatish faoliyatini to'laqonli amalga oshira olmaydi. Joriy aktivlardan oqilona va samarali foydalanish, kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Bozor munosabatlarining shakllanishi ularni tashkil etishning shartlarini belgilaydi. To'lovlar, inflyatsiya va boshqa inqiroz hodisalari tashkilotlarni joriy aktivlar bilan bog'liq siyosatini o'zgartirishga, ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganishga, ularni to'ldirishning boshqa manbalarini izlashga majbur qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Роженцова, И. А. (2015). Достоверность учетно-отчетной информации: обзор критериев оценки и взглядов пользователей. *Аудитор*, 1(6), 25-42.
2. Кондраков, Н.П. Бухгалтерский (финансовый, управленческий) учет : учебник / Н.П. Кондраков .— 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Проспект, 2016 .— 512 с.
3. Каморджанова, Н. А., Карташова, И. В., & Шабля, А. П. (2015). Бухгалтерский финансовый учет.
4. Abdullaev YO., Ibrohimov A., Rahimov M. Iqtisodiy tahlil 100 savol va javob. – Т.: “Mehnat”, 2001. – В. 117.
5. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari. – Т.: “NORMA”, 2021.
6. Ламанов, И. П. (2005). Активы организации: их формирование, использование и управление: их формирование, использование и управление (Doctoral dissertation, спец. 08.00. 01, 08.00. 10/Ламанов Иван Петрович).
7. Ugli, A. V. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current Assets and Their Role in Company Activity. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(7), 25-30.
8. Tohirovich, Q. N. (2023). Specifics of Accounting for Lease Operations of the Organization. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice*, 1(2), 31-38.
9. Akbaralievich, E. A., & Akbarovich, M. A. (2023). Features of the Formation and Accounting of the Authorized Capital in Organizations of Various Forms of Ownership. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 13-20.
10. Кудбиев, Д. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АВТОМАТИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА. In *Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики* (pp. 376-380).
11. Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobini takomilashtirish masalalari. *Scientific progress*, 3(3), 837-846.
12. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 10(12), 312-318.
13. Kumrikhon, K., & Azizhon, K. (2021). Issues of Improving the Audit of Insurance Organizations. *Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance*, 2(11), 25-30.
14. Ibragimovna, K. K. (2022). The system of indicators of the economic efficiency of land use in the context of the activities of agricultural enterprises of various forms of management Kunduzova Kumrikhon. *World Economics and Finance Bulletin*, 11, 33-37.
15. Ibragimovna, K. K., & Saidalokhonovich, K. A. (2022). Issues of improving the organization of accounting and auditing in insurance organizations. *Global Book Publishing Services*, 1-108.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).